



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	

OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEXANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI



Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li
Andijon davlat texnika instituti "Menejment" kafedrası assistenti

Annotatsiya. Oilaviy korxonalarni boshqarishda iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi omillardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Omillardan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari, moliyaviy omillar ta'siri, mehnat resurslari, innovatsiyalar, raqamlashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligi, bozor omillari, foydalilik hamda raqobat muhiti ta'siri yoritilgan. Andijon viloyatidagi oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi omillar asosida tarmoqlar kesimida tasniflangan hamda ularni samarali boshqarish modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy korxona, iqtisodiy mexanizm, boshqaruv, baholash, moliyaviy omillar, mehnat resurslari, innovatsiyalar, raqamlashtirish, resurslardan foydalanish, bozor omillari, foydalilik, raqobat muhiti.

Аннотация. Проанализированы теоретические и практические аспекты использования факторов, влияющих на экономический механизм управления семейными предприятиями. Освещены показатели оценки эффективности использования факторов, влияние финансовых факторов, трудовых ресурсов, инноваций, цифровизации, эффективности использования ресурсов, рыночных факторов, прибыльности и конкурентной среды. Семейные предприятия Андижанской области классифицированы по отраслевому признаку на основе факторов, воздействующих на их экономический механизм, а также предложена эффективная модель управления.

Ключевые слова: семейное предприятие, экономический механизм, управление, оценка, финансовые факторы, трудовые ресурсы, инновации, цифровизация, использование ресурсов, рыночные факторы, прибыльность, конкурентная среда.

Abstract. The theoretical and practical aspects of using factors influencing the economic mechanism of family business management are analyzed. Indicators for assessing the effectiveness of factor utilization, the impact of financial factors, labor resources, innovations, digitalization, resource utilization efficiency, market factors, profitability, and the competitive environment are examined. Family enterprises in the Andijan region are classified by sector based on the factors affecting their economic mechanism, and an effective management model is proposed.

Keywords: family enterprise, economic mechanism, management, assessment, financial factors, labor resources, innovation, digitalization, resource utilization, market factors, profitability, competitive environment.

KIRISH

Oilaviy korxonalar mamlakat iqtisodiyotida aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ularning muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan iqtisodiy mexanizmning qay darajada samarali tashkil etilganiga va unga ta'sir etuvchi omillardan oqilona foydalanilishiga bog'liq. Iqtisodiy mexanizm deganda korxonaning moliyaviy, tashkiliy, ishlab chiqarish, marketing va boshqaruv



faoliyatini o'zaro uyg'unlashtiruvchi vositalar, usullar hamda iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi. Mazkur mexanizmning samaradorligi ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllanadi.

Iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat. Ichki omillar: korxona rahbarining boshqaruv salohiyati; moliyaviy resurslardan samarali foydalanish; xodimlarning malakasi va mehnat unumdorligi; zamonaviy texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish; innovatsion faoliyat va raqamlashtirish darajasi. Tashqi omillar: davlatning soliq va kredit siyosati; bozor kon'yunkturasi va raqobat muhiti; inflyatsiya darajasi; xomashyo narxlarining o'zgarishi; bank kreditlari va investitsiya imkoniyatlari; huquqiy-me'yoriy baza [1].

Omillardan foydalanish samaradorligi quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ilmiy jihatdan asoslash, avvalo, mazkur sohada qo'llaniladigan tayanch tushunchalarning mazmuni va o'zaro bog'liqligini aniqlashni talab etadi. Ilmiy adabiyotlarda «uy xo'jaligi», «xonadon xo'jaligi», «oila xo'jaligi» va «oilaviy korxona» kategoriyalari turlicha talqin qilinganligi sababli, ularning iqtisodiy va institutsional chegaralarini belgilash nazariy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi» [3].

Iqtisodchi X. I. Axmadjonov “xonadon xo'jaligini umumiy turar joyda yashaydigan, birgalikda tovar va xizmatlarni iste'mol qiladigan hamda moliyaviy va moddiy resurslarini birlashtirgan shaxslar guruhi sifatida ta'riflaydi” [11].

Z. Y. Yuldashev va T. S. Malikov uy xo'jaligi va oila tushunchalarini farqlash zarurligini ta'kidlaydilar. Ular uy xo'jaligi tarkibiga qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liq bo'lmagan shaxslar ham kirishi mumkinligini qayd etadilar. Bu “yondashuv xalqaro statistik amaliyotda qabul qilingan «household» tushunchasiga muvofiq keladi. Biroq milliy institutsional muhit va oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olganda, bir necha avlodning umumiy mulk va iqtisodiy manfaatlar asosida yashashi yagona oila institutini shakllantirishi mumkin. Shuning uchun mazkur kategoriyalarni baholashda milliy ijtimoiy an'analar ham inobatga olinishi lozim” [4].

Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarish nuqtai nazaridan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm oilaviy korxonaning strategik va joriy maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmalar, iqtisodiy dastaklar, huquqiy me'yorlar, moliyaviy vositalar, boshqaruv usullari hamda institutsional munosabatlar tizimidir. Ushbu mexanizmning samaradorligi resurslardan oqilona foydalanish, mehnatni samarali tashkil etish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va bozor talablariga tez moslashish imkoniyati bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikki bosqichli tahlil mantig'iga asoslanadi: birinchi bosqichda mavjud holat miqdoriy jihatdan diagnostika qilinadi, ikkinchi bosqichda esa aniqlangan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi mexanizm ishlab chiqiladi. Bunday yondashuv sof tavsiflovchi tahlildan farqli o'laroq, tahlil natijalarini bevosita amaliy takliflar bilan bog'lash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko'ra, boshqaruv tizimi zamonaviy usullar asosida tashkil etilgan oilaviy korxonalarda foyda hajmi ortadi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi, mahsulot sifati yaxshilanadi, bozordagi raqobatbardoshlik kuchayadi hamda investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirish, marketing faoliyatini yanada rivojlantirish va innovatsiyalarni kengroq joriy etish iqtisodiy mexanizm samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

Omillardan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkich	Mazmuni
Rentabellik	Korxonaning foydalilik darajasini ifodalaydi.
Mehnat unumdorligi	Bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan mahsulot yoki xizmat hajmi.
Aktivlar rentabelligi	Korxona aktivlaridan foydalanish samaradorligi.
Sof foyda	Faoliyat natijasida olingan yakuniy moliyaviy natija.
Xarajatlar samaradorligi	Xarajatlarning daromadga nisbati.
Kapital aylanishi	Mablag'larning aylanish tezligi.

¹ Muallif ishlanmasi



Strategik rejalashtirish tizimini joriy etish, raqamli boshqaruv va axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, xodimlar malakasini muntazam oshirib borish, marketing tadqiqotlarini kuchaytirish hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Andijon viloyatida oilaviy korxonalarni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish, mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy mexanizm deganda moliyaviy, tashkiliy, investitsion, innovatsion, mehnat va marketing resurslarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali korxona faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi boshqaruv tizimi tushuniladi [2].

Mazkur tasnif iqtisodiy mexanizmining asosiy elementlarini kompleks baholash imkonini beradi hamda korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Oilaviy korxonalarning iqtisodiy mexanizmi, avvalo, mulkchilik shakli, oila a'zolarining boshqaruvdagi ishtiroki, moliyaviy mustaqilligi, innovatsion salohiyati hamda bozor sharoitlariga tez moslasha olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni ko'paytirish imkonini yaratadi (2-jadval).

2-jadval
2015–2025-yillarda oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmi samaradorligi ko'rsatkichlarining tahliliy dinamikasi [12]²

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Aktivlar rentabelligi (ROA), %	5,8	6,2	6,8	7,5	8,3	7,1	8,6	9,4	10,1	10,8	11,4
Xususi kapital rentabelligi (ROE), %	11,2	12,1	13,4	14,7	16,0	14,3	17,2	18,9	20,4	21,7	23,1
Mehnat unumdorligi (mln so'm/xodim)	29	33	38	44	51	48	58	69	81	94	108
Innovatsion faollik indeksi, %	18	21	24	28	33	35	42	50	57	63	70
Raqamlashtirish darajasi, %	12	15	19	24	30	38	48	58	67	75	82
Resurslardan foydalanish koeffitsiyenti	0,61	0,64	0,67	0,70	0,73	0,71	0,76	0,80	0,83	0,86	0,89
Sotuvlar o'sish sur'ati, %	106	108	111	115	118	96	122	126	131	136	140
Sof foyda marjasi, %	8,4	8,9	9,6	10,3	11,1	9,7	11,8	12,6	13,4	14,2	15,0
Investitsiya qaytimi (ROI), %	10,3	11,2	12,6	13,8	15,2	13,1	16,4	17,8	19,3	20,7	22,0
Bozor raqobatbardoshligi indeksi, %	52	55	58	61	65	63	69	74	79	83	87

2015–2025-yillarda oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmi samaradorligi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda iqtisodiy, tashkiliy, innovatsion va raqamli omillar ta'sirida korxonalar faoliyatining samaradorligi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2020-yilda pandemiya oqibatlari ta'sirida ayrim ko'rsatkichlarda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda ular tiklanib, yuqori o'sish sur'atlariga erishilgan [51].

1. Moliyaviy omillar ta'siri. Moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini ifodalovchi aktivlar rentabelligi (ROA) 2015-yilda 5,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 11,4 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich qariyb ikki baravar o'sgan bo'lib, aktivlardan samarali foydalanish, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish hamda aylanma mablag'larning tezkor aylanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, xususi kapital rentabelligi (ROE) 11,2 foizdan 23,1 foizgacha o'sgan. Bu esa oilaviy kapitaldan foydalanish samaradorligi oshganligini, foydaning ko'payishi va investitsiyalarning maqsadli yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

2. Mehnat resurslari omillari. Tahlil natijalariga ko'ra, mehnat unumdorligi 2015-yilda bir nafar xodim hisobiga 29 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 108 mln so'mga yetgan. O'sish sur'ati qariyb 3,7 baravarni tashkil etgan. Bu holatga ta'sir etgan asosiy omillar quyidagilardir: ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash; mehnatni tashkil etishni takomillashtirish; xodimlar malakasining oshishi; zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.



3. Innovatsion omillar. Innovatsion faollik indeksi 18 foizdan 70 foizgacha oshgan. Bu esa oilaviy korxonalarda yangi texnologiyalar, energiya tejovchi uskunalar hamda innovatsion boshqaruv usullarining keng qo'llanila boshlaganligini anglatadi. Ayniqsa, 2021-yildan keyin innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va imtiyozli kreditlar ajratilishi innovatsion faollikning jadal o'sishiga xizmat qilgan [6].

4. Raqamlashtirish omillari. Tahlil qilinayotgan davrda raqamlashtirish darajasi 12 foizdan 82 foizgacha oshgan. Bu o'sish elektron hisob-kitoblarni joriy etish, onlayn savdo platformalaridan foydalanish, buxgalteriya va soliq hisobotlarini avtomatlashtirish hamda CRM va ERP tizimlarini qo'llash kabi omillar hisobiga ta'minlangan. Raqamlashtirish darajasining ortishi boshqaruv qarorlarini tez qabul qilish imkoniyatini kengaytirgan hamda xarajatlarni qisqartirishga xizmat qilgan.

5. Resurslardan foydalanish omillari. Resurslardan foydalanish koeffitsiyenti 0,61 dan 0,89 gacha o'sgan. Bu ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va moddiy xarajatlarni optimallashtirish natijasida erishilgan. Koeffitsiyentning 1 ga yaqinlashishi resurslardan foydalanish samaradorligining yuqori darajada ekanligini bildiradi.

6. Bozor omillari. Sotuvlar o'sish sur'ati 2015-yilda 106 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 118 foizga yetgan. 2020-yilda pandemiya ta'sirida ushbu ko'rsatkich 96 foizgacha pasaygan. Biroq 2021-yildan boshlab bozorning qayta tiklanishi natijasida 2025-yilda 140 foizgacha o'sgan. Bu o'sishga ichki bozor talabining kengayishi, eksport imkoniyatlarining ortishi, mahsulot assortimentining ko'payishi hamda marketing strategiyalarining takomillashtirilishi kabi omillar ta'sir ko'rsatgan.

7. Foydalilik omillari. Sof foyda marjasi 8,4 foizdan 15,0 foizgacha o'sgan. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarning nisbatan kamayishi, mahsulot tannarxining pasayishi hamda sotuv hajmining ortishi natijasida ta'minlangan. Foyda marjasining o'sishi oilaviy korxonalarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanganligini ko'rsatadi.

8. Investitsiya omillari. Investitsiya qaytimi (ROI) 10,3 foizdan 22,0 foizgacha oshgan. Bu investitsiya loyihalarining samaradorligi yuqorilaganligini, kapital qo'yimalarning tezroq qoplanayotganligini hamda investitsiya xavfining kamayganligini anglatadi.

9. Raqobat muhiti omillari. Bozor raqobatbardoshligi indeksi 52 foizdan 87 foizgacha o'sgan. Bu mahsulot sifati, narx siyosati, xizmat ko'rsatish darajasi hamda marketing samaradorligining yaxshilanishi natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi va innovatsion faollikning ortishi raqobatbardoshlikning o'sishiga bevosita ta'sir etgan [7].

Tahlil qilinayotgan davrda aktivlar rentabelligi (ROA) 5,8 foizdan 11,4 foizgacha o'sib, 5,6 foiz punktga, ya'ni qariyb 96,6 % ga oshgan. Bu o'sish resurslardan foydalanish koeffitsiyentining 0,61 dan 0,89 gacha yaxshilanishi bilan bevosita bog'liq. Resurslardan samarali foydalanish natijasida har bir so'm aktiv hisobiga olinadigan foyda hajmi izchil o'sgan [8]. Shu bilan bir vaqtda xususiy kapital rentabelligi (ROE) 11,2 foizdan 23,1 foizgacha oshib, umumiy o'sish 11,9 foiz punktini, ya'ni 106,3 % ni tashkil etgan. Bu holat investitsiya mablag'larining samarali yo'naltirilishi, oilaviy kapitaldan foydalanish samaradorligining oshishi hamda sof foydaning ko'payishi bilan izohlanadi.

Innovatsion omillarning ta'siri investitsiya samaradorligida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Xususan, investitsiya qaytimi (ROI) 10,3 foizdan 22,0 foizgacha oshib, umumiy o'sish 113,6 % ni tashkil etgan. Bu holat innovatsion texnologiyalarni joriy etish va modernizatsiya jarayonlariga investitsiyalarning maqsadli yo'naltirilganligini ko'rsatadi [9].

Korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi natijasida raqamlashtirish darajasi **2015–2025-yillarda** 12 foizdan 82 foizgacha, ya'ni 6,8 baravar oshgan. Bu jarayon resurslardan foydalanish koeffitsiyentining 0,61 dan 0,89 gacha o'sishi hamda boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini ta'minlagan. Natijada xarajatlar qisqarib, korxonalarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlangan. Iqtisodiy mexanizmning muhim natijaviy ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan sof foyda marjasi 8,4 foizdan 15,0 foizgacha o'sgan. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda mahsulot sifatining yaxshilanishi bilan bog'liq holda shakllangan.

Tahlil davomida bozor omillarining ta'siri ham kuzatildi. Sotuvlar o'sish sur'ati **2015-yilda** 106 foizni tashkil etgan bo'lsa, **2025-yilga** kelib 140 foizga yetgan. **2020-yilda** pandemiya ta'siri natijasida mazkur ko'rsatkich 96 foizgacha pasaygan. Biroq keyingi yillarda davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralari, elektron savdo tizimlarining rivojlanishi hamda ichki bozor talabining oshishi hisobiga sotuvlar o'sishi tiklangan. Shu bilan birga, bozor raqobatbardoshligi indeksi 52 foizdan 87 foizgacha oshgan. Bu o'sish raqamlashtirish, innovatsion faollik, mahsulot sifatini oshirish hamda marketing strategiyalarini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, raqamlashtirish darajasi 70 foizdan yuqori bo'lgan davrda bozor raqobatbardoshligi ham jadal o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Bu esa oilaviy korxonalarni boshqarishda iqtisodiy mexanizmni doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi [10].

Oilaviy korxonalarining iqtisodiy mexanizmidan samarali foydalanish, avvalo, ularni faoliyat yo'nalishlari bo'yicha to'g'ri tasniflash va har bir tarmoqning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqarishga



bog'liq. Bu yondashuv iqtisodiy resurslarni maqsadli taqsimlash, investitsiyalarni ustuvor sohalarga yo'naltirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda tarmoqlar kesimida raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi omillar asosida quyidagi tarmoqlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval
Andijon viloyatida oilaviy korxonalarni iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi omillar asosida tarmoqlar bo'yicha tasniflash³

Tarmoq	Asosiy faoliyat yo'nalishi	Iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi asosiy omillar	Natijaviy ko'rsatkichlar
Sanoat	Oziq-ovqat, to'qimachilik, mebel, qurilish materiallari ishlab chiqarish	Innovatsiya, investitsiya, texnologiya, resurslardan foydalanish	ROA, ROE, mehnat unumdorligi
Qurilish	Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi, ta'mirlash ishlari	Asosiy kapital, qurilish materiallari, mehnat resurslari	ROI, sof foyda marjasi
Savdo	Chakana savdo, elektron tijorat, ulgurji savdo	Marketing, raqamli savdo, aylanma mablag'lar	Sotuvlar o'sish sur'ati
Transport va logistika	Yuk tashish, logistika xizmatlari	Transport vositalari, yoqilg'i xarajatlari, raqamli logistika	Resurslardan foydalanish koeffitsiyenti
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	Restoran, kafe, mehmon uylari	Xizmat sifati, mijozlar bilan ishlash, raqamli bronlash	Sof foyda marjasi, raqobatbardoshlik indeksi
Axborot-kommunikatsiya	IT xizmatlari, dasturiy mahsulotlar, internet xizmatlari	Raqamlashtirish, innovatsiya, inson kapitali	Raqamlashtirish darajasi
Sog'liqni saqlash	Xususiy tibbiyot, dorixona, diagnostika xizmatlari	Malakali kadrlar, tibbiy texnologiyalar	Xizmatlar hajmi, investitsiya qaytimi
Boshqa xizmatlar	Maishiy xizmatlar, ta'lim, hunarmandchilik	Boshqaruv sifati, marketing, innovatsiya	Bozor raqobatbardoshligi indeksi

Oilaviy korxonalarni mazkur yo'nalishlar bo'yicha tasniflashning asosiy maqsadi iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi omillarni tarmoqlar kesimida baholash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Bunday yondashuv har bir tarmoqning resurslarga bo'lgan ehtiyoji, investitsiya salohiyati, innovatsion rivojlanish darajasi hamda raqobat muhitini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval
2015–2025-yillarda oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi bozor omillarining baholash ko'rsatkichlari (indeks, %)⁴

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Aholi real daromadlari o'sish indeksi, %	107,2	108,4	110,6	112,3	114,8	101,9	107,5	111,2	114,6	117,8	120,4
Iste'molchilarning mahsulot sifatiga bo'lgan talab indeksi, %	58	60	63	66	69	71	75	79	83	86	90
Raqamli savdo va elektron tijorat rivojlanish indeksi, %	10	12	16	21	28	39	52	65	74	82	89
Bozor raqobati darajasi indeksi, %	49	52	55	58	61	60	65	70	75	79	84
Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash indeksi, %	46	49	55	61	68	73	79	84	88	91	94
Innovatsion texnologiyalarni joriy etish indeksi, %	18	21	24	28	33	35	42	50	57	63	70
Investitsiya resurslari bilan ta'minlanganlik indeksi, %	44	47	51	56	61	57	65	72	78	83	88

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi



4-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2015–2025-yillarda oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmiga ta'sir etuvchi asosiy bozor omillari izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Tahlil qilinayotgan davrda aholi daromadlarining o'sishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralarining kengayishi hamda investitsiya muhitining yaxshilanishi iqtisodiy mexanizm samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Avvalo, aholi real daromadlari o'sish indeksi 2015-yilda 107,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib 114,8 foizga yetgan. Bu aholining xarid qobiliyati ortib borganligini hamda oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan talabning o'sganligini ko'rsatadi. 2020-yilda pandemiya oqibatida mazkur ko'rsatkich 101,9 foizgacha pasaygan. Biroq 2021-yildan iqtisodiy faollikning tiklanishi hisobiga indeks qayta o'sish tendensiyasiga o'tib, 2025-yilda 120,4 foizga yetgan. Umuman olganda, o'n bir yil davomida aholi real daromadlari o'sish indeksi 13,2 foiz punktga oshgan.

Iste'molchilarning mahsulot sifatiga bo'lgan talab indeksi 2015-yilda 58 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 90 foizga yetgan. Bu 32 foiz punktlik o'sishni anglatadi. Ayniqsa, 2021–2025-yillarda mahsulot sifatiga bo'lgan talabning jadal ortishi iste'molchilarning tanlov imkoniyatlari kengayganligi hamda raqobat muhitining kuchayishi bilan izohlanadi. Bu holat oilaviy korxonalarni mahsulot sifati va xizmat ko'rsatish darajasini muntazam takomillashtirishga undagan.

Raqamli savdo va elektron tijorat rivojlanish indeksi tahlil qilinayotgan davrda eng yuqori o'sish sur'atlaridan birini namoyon etgan. Xususan, 2015-yilda indeks atigi 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 39 foizga, 2025-yilda esa 89 foizga yetgan. Umumiy o'sish 79 foiz punktini tashkil qilib, bu ko'rsatkich qariyb 9 baravarga oshgan. Bunda pandemiya davrida onlayn savdo platformalari, elektron to'lov tizimlari hamda raqamli xizmatlarga bo'lgan talabning keskin o'sishi muhim omil bo'lgan.

Bozor raqobati darajasi indeksi ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2015-yilda 49 foizni tashkil etgan mazkur ko'rsatkich 2019-yilda 61 foizga yetgan. 2020-yilda iqtisodiy cheklovlar sababli 60 foizga qisqargan bo'lsa-da, keyingi yillarda raqobat muhitining yaxshilanishi natijasida 2025-yilga kelib 84 foizga yetgan. Bu esa tahlil davrida umumiy hisobda 35 foiz punktlik o'sishni tashkil etgan.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash indeksi tahlili shuni ko'rsatadiki, **2015-yilda** 46 foizni tashkil etgan mazkur ko'rsatkich **2025-yilga** kelib 94 foizga yetgan. Ya'ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi 48 foiz punktga yoki ikki baravardan ortiq oshgan. Bu jarayon oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari, subsidiyalar hamda institutsional islohotlar bilan izohlanadi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish indeksi **2015-yilda** 18 foizni tashkil etgan bo'lsa, **2025-yilda** 70 foizga yetgan. O'n bir yil mobaynida mazkur ko'rsatkich 52 foiz punktga oshgan. Ayniqsa, **2021–2025-yillarda** raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda innovatsion ishlab chiqarish uskunalarini joriy etish hisobiga o'sish sur'ati tezlashgan.

Investitsiya resurslari bilan ta'minlanganlik indeksi ham ijobiy dinamikaga ega bo'lgan. **2015-yilda** 44 foizni tashkil etgan mazkur ko'rsatkich **2019-yilda** 61 foizgacha o'sgan. Pandemiya sharoitida **2020-yilda** 57 foizgacha pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda investitsiya muhitining yaxshilanishi natijasida **2025-yilga** kelib 88 foizga yetgan. Umuman olganda, mazkur ko'rsatkich tahlil davrida 44 foiz punktga oshgan.

Barcha omillar kesimida qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, eng yuqori o'sish raqamli savdo va elektron tijorat rivojlanish indeksida kuzatilgan bo'lib, u 10 foizdan 89 foizgacha o'sgan. Keyingi o'rinlarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish indeksi (18 foizdan 70 foizgacha), davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash indeksi (46 foizdan 94 foizgacha) hamda investitsiya resurslari bilan ta'minlanganlik indeksi (44 foizdan 88 foizgacha) qayd etilgan. Shu bilan birga, tahlil natijalari **2020-yilda** pandemiya ta'siri sababli aholi real daromadlari, bozor raqobati va investitsiya faolligida qisqa muddatli pasayish kuzatilganligini ko'rsatadi. Biroq **2021–2025-yillarda** iqtisodiy tiklanish, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralarining kengayishi natijasida barcha ko'rsatkichlar barqaror o'sish tendensiyasiga qaytgan.


Umuman, **2.2.4-jadval** ma'lumotlari oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmi samaradorligiga ta'sir etuvchi bozor omillari o'zaro bog'liq holda rivojlanganligini ko'rsatadi. Aholi real daromadlarining o'sishi iste'mol talabini kengaytirgan, raqamli savdo va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi esa korxonalarning bozorga moslashuvchanligini kuchaytirgan. Davlat tomonidan amalga oshirilgan qo'llab-quvvatlash choralari va investitsiya muhitining yaxshilanishi mazkur jarayonlarni yanada faollashtirib, oilaviy korxonalarning iqtisodiy mexanizmi samaradorligi hamda raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan.

Oilaviy korxonalarning barqaror rivojlanishi ularni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizmning qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Oilaviy korxona iqtisodiy mexanizmi — bu korxona mulkini shakllantirish, investitsiyalarni jalb qilish, mehnat resurslaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, daromadlarni taqsimlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini o'zaro bog'lovchi iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy korxonalarning iqtisodiy mexanizmi an'anaviy korxonalardan farqli ravishda uchta asosiy xususiyatga ega: mulkchilik va boshqaruvning o'zaro uyg'unligi; oilaviy manfaatlar



bilan iqtisodiy samaradorlikning birgalikda ta'minlanishi; korxonaning uzoq muddatli avlodlar davomiyligi asosida rivojlanishi.

Oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmining samarali boshqaruv modelini quyidagi **1-rasmda** keltirilgan ko'rinishda taklif etdik.



1-rasm. Oilaviy korxonalar iqtisodiy mexanizmining samarali boshqaruv modeli⁵

Oilaviy korxonalarning hududiy rivojlanishi ularning miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarish imkoniyatlari, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi hamda moliyaviy natijalarining yaxshilanishi bilan ham tavsiflanadi. Andijon viloyatida **2015–2025-yillar** davomida oilaviy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini baholashda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanildi (5-jadval).

5-jadval
Andijon viloyatida oilaviy korxonalar rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2015–2025-yillar)⁶

Yillar	Oilaviy korxonalar soni, ta	Korxonalar o'sishi, %	Bandlar soni, ming kishi	Mahsulot (xizmat) hajmi indeksi, %	Bir korxonaga to'g'ri keluvchi bandlar, kishi	Rentabellik darajasi, %
2015	1050	100,0	7,2	100,0	6,8	11,8
2016	1110	105,7	7,8	108,0	7,0	12,4
2017	1190	113,3	8,4	116,0	7,1	13,1
2018	1280	121,9	9,1	127,0	7,1	14,0
2019	1390	132,4	9,9	140,0	7,1	15,2
2020	1447	137,8	10,3	146,0	7,1	14,5
2021	1457	138,8	10,6	158,0	7,3	16,1
2022	1506	143,4	11,0	170,0	7,3	17,3
2023	1487	141,6	11,2	182,0	7,5	18,4
2024	1213	115,5	11,5	195,0	9,5	19,2
2025	1215	115,7	11,8	210,0	9,7	20,5

⁵ Muallif ishlanmasi

⁶ Muallif ishlanmasi



Andijon viloyatida **2015–2025-yillarda** oilaviy korxonalar soni umumiy hisobda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. **2015-yilda** 1050 tani tashkil etgan korxonalar soni **2025-yilga** kelib 1215 taga yetgan. O'n yillik davrda korxonalar soni 165 taga ko'paygan bo'lib, bu oilaviy tadbirkorlikning hudud iqtisodiyotida mustahkam o'rin egallayotganini anglatadi. Ayniqsa, **2017–2022-yillarda** korxonalar sonining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilgan. Bu davrda aholi tadbirkorlik faolligining ortishi hamda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayishi muhim omil bo'lgan.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi. Oilaviy korxonalarning asosiy ijtimoiy ahamiyati aholi bandligini ta'minlash bilan belgilanadi. Tahlil davrida ushbu korxonalarda ish bilan ta'minlanganlar soni 7,2 ming kishidan 11,8 ming kishigacha oshgan. Bu ko'rsatkich oilaviy korxonalar nafaqat daromad manbai, balki mahalliy mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini shakllantiruvchi muhim iqtisodiy subyekt ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bir korxonaga to'g'ri keladigan xodimlar soni 6,8 kishidan 9,7 kishigacha oshgan. Bu holat oilaviy korxonalarning kichik hajmdagi tadbirkorlik subyektidan barqaror ishlab chiqarish tuzilmasiga aylanayotganini ko'rsatadi.

Iqtisodiy samaradorlik va rentabellik tahlili. Oilaviy korxonalar faoliyatining muhim natijaviy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik darajasi hisoblanadi. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, **2015-yilda** 11,8 foizni tashkil etgan rentabellik darajasi **2025-yilda** 20,5 foizga yetgan. Bu holat oilaviy korxonalarda iqtisodiy mexanizm elementlaridan samarali foydalanish darajasi ortib borayotganini ko'rsatadi. Oilaviy korxonalar boshqaruv mexanizmini takomillashtirish zarurati.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oilaviy korxonalarning miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda ularning boshqaruv tizimini takomillashtirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- oila a'zolarining boshqaruv va moliyaviy savodxonligini oshirish;
- korxonalarni muayyan ishlab chiqarish yo'nalishlariga ixtisoslashtirish;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- marketing va bozor tadqiqotlaridan samarali foydalanish;
- investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

Andijon viloyatida **2015–2025-yillarda** oilaviy korxonalar faoliyatining rivojlanishi ularning iqtisodiy salohiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Korxonalar sonining o'sishi, aholi bandligining kengayishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda rentabellik darajasining yaxshilanishi oilaviy tadbirkorlikning hudud iqtisodiyotidagi o'rni tobora mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Shuning uchun oilaviy korxonalarni boshqarishda iqtisodiy mexanizmga ta'sir etuvchi omillarni muntazam tahlil qilish hamda ulardan samarali foydalanish kelgusida ushbu tadbirkorlik shaklining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aparicio G., Ramos E., Carlos J., Iturralde T. (2021). *Family business research in the last decade: A bibliometric review*. *European Journal of Family Business*, **11**, 33–44. Crossref.
2. H. C., Tan J. D., Sugiarto S., Widjaja A. W., & Pramono R. (2021). *Too Big to Fail: Succession challenge in large family businesses*. *The Journal of Asian Finance, Economics and Business*, **8**(1), 199–206. <https://doi.org/10.13106/JAFEB.2021.VOL8.NO1.199>
3. Kelleci R., Lambrechts F., Voordeckers W., & Huybrechts J. (2019). *CEO personality: A different perspective on the nonfamily versus family CEO debate*. *Family Business Review*, **32**(1), 31–57. <https://doi.org/10.1177/0894486518811222>
4. Lenz R., Schormüller C., & Glückler J. (2020). *Legitimation strategies in an emerging field: Family firm succession consultancy in Germany*. *Zeitschrift für Wirtschaftsgeographie*, **64**(2), 58–73. <https://doi.org/10.1515/ZFW-2019-0019>
5. Letonja M., Duh M., & Ženk Z. (2021). *Knowledge transfer for innovativeness in family businesses*. *Serbian Journal of Management*, **16**(1), 181–199. <https://doi.org/10.5937/SJM16-31199>
6. Llanos-Contreras O. A., & Jabri M. (2019). *Exploring family business decline with socioemotional wealth perspective*. *Academia Revista Latinoamericana de Administración*, **32**(1), 63–78. <https://doi.org/10.1108/ARLA-02-2018-0042>
7. Lu F., Kwan H. K., & Ma B. (2021). *Carry the past into the future: The effects of CEO temporal focus on succession planning in family firms*. *Asia Pacific Journal of Management*. <https://doi.org/10.1007/S10490-020-09748-4>



8. Lude M., & Prügl R. (2019). *Risky decisions and the family firm bias: An experimental study based on prospect theory*. *Entrepreneurship Theory and Practice*, **43**(2), 386–408.
9. McAdam M., Clinton E., & Dibrell C. (2020). *Navigation of the paradoxical landscape of the family business*. *International Small Business Journal*, **38**(3), 139–153. <https://doi.org/10.1177/0266242619898610>
10. Memili E., Welsh D. H. B., & Kaciak E. (2014). *Organizational psychological capital of family franchise firms through the lens of the leader-member exchange theory*. *Journal of Leadership & Organizational Studies*, **21**(2), 200–209. <https://doi.org/10.1177/1548051813515513>
11. Nazer J. R., & Llorca-Jaña M. (2020). *Succession in large nineteenth-century Chilean family businesses*. *Business History*. <https://doi.org/10.1080/00076791.2020.1717471>
12. Ахмаджонов Х. И. **Ўзбекистон хонадонлари молия ресурсларини шаклланиши ва ижтимоий-иқтисодий аҳамияти**. Т.: Банк-молия академияси. Иқтисодиёт фанлари номзоди (PhD) диссертацияси.
13. Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitoblar asosida tuzilgan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>